DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-79 **Pages: 685-692**

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



EXPRESSION OF EXCEPTIONALITY

Muhammadjon Shomurzayev
Trainee teacher
Higher School of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: shomurzayevmuhammad@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: exclusion, exclusion particle, إِلَّا, غَيْرٌ, سُوًى, خَلَا, عَدَا, وَحَاشَا, سِوًى, affirmative sentence, negative sentence.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article provides an in-depth analysis of one of the key grammatical categories of the Arabic language — the topic of “Exclusion” (Istisna). It details various types of exclusions, the tools used to express them, and their grammatical rules.

ISTISNOLIKNING IFODALANISHI

Muhammadjon Shomurzayev
Stajor-o‘qituvchi
Arabshunoslik Oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: shomurzayevmuhammad@gmail.com
O’zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: istisno, mustasno, mustasno minhu, istisno harfi, إِلَّا, غَيْرٌ, سُوًى, خَلَا, عَدَا, وَحَاشَا, سِوًى, bo‘lishli gap, bo‘lishsiz gap.

Annotatsiya: Ushbu maqola arab tilining muhim grammatik kategoriyalaridan biri bo‘lgan “Istisno” mavzusini batafsil tahlil qiladi. Unda turli istisno turlari, ularni ifodalash uchun ishlatiladigan vositalar va ularning grammatik qoidalari haqida batafsil ma’lumot keltiriladi.

ВЫРАЖЕНИЕ ИСКЛЮЧИТЕЛЬНОСТИ

Мухаммаджон Шомурзаев
Стажёр-преподаватель
Высшая школа арабоведения
Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: shomurzayevmuhammad@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: исключение, исключаемое, основа исключения, частица исключения, إِلَّا, غَيْرٌ, سُوًى, خَلَا, عَدَا, وَحَاشَا, سِوًى, утвердительное предложение, отрицательное предложение.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается одна из важных грамматических категорий арабского языка — тема “Исключение”. В ней даётся детальная информация о различных типах исключений, средствах их выражения и грамматических правилах, связанных с ними.

Kirish. Ma’lumki, arab tilida istisno grammatik va semantik jihatdan murakkab tuzilmalardan biri hisoblanadi. Istisno ifodalari, ya’ni إلا، غير، سوى, خلا, عدا va boshqa vositalar yordamida shakllanadigan tuzilmalar, arab sintaksisida alohida o‘rin tutadi. Ushbu tuzilmalar uzoq vaqt davomida og‘zaki nutqda shakllangan bo‘lib, keyinchalik VIII-IX asrlarda arab grammatiklari tomonidan aniqlashtirilib, yozma manbalarda aks ettirilgan (Wright, 1896; Ibn Hisham, 1990; Al-Jurjani, 2002). Istisno jumlalari arab tilshunosligi va adabiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular matnning semantik yukini oshirish, nutqni aniqlik va aniq ma’no bilan boyitish uchun qo‘llaniladi.

Arab grammatikasi rivojida yetakchi maktablardan biri bo‘lgan Basra va Kufa nahvchilari istisno tuzilmalari bo‘yicha turli qarashlarga ega bo‘lishgan. Xususan, basralik grammatiklar istisnoni qoidaga bo‘ysunuvchi qat’iy tuzilma sifatida ko‘rgan bo‘lsa, kufaliklar undagi fleksibil grammatik o‘zgarishlarni ham e’tiborga olishgan. Abu Ubayda Ma’mar ibn al-Musanna (728-825) kabi tilshunoslar istisno so‘zlari va ularning ishlatilish qoidalarini matnlarda o‘rganib, ularni an’anaviy grammatik tizimga kiritganlar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab tilida istisno tuzilmalari haqida ilk ma’lumotlarni qadimgi arab grammatiklarining asarlaridan topish mumkin. Jumladan, Sibavayh (760-796) o‘zining “Al-Kitob” asarida istisno jumlalari haqida batafsil ma’lumot bergan. U istisno shakllarining sintaktik roli va turli hollarda ularning grammatik o‘zgarishlarini yoritgan. Ibn Hisham (1309-1360) “Mughni al-Labib” asarida istisno jumlalarining turli xil shakllari va ularning mantiqiy-strukturaviy jihatlarini tahlil qilgan. Ibn Jinni (941-1002) o‘zining “Al-Khasa’is” kitobida istisno tuzilmalari va ularning fonetik, morfologik xususiyatlarini tadqiq qilgan.

Zamonaviy arab tilshunosligida istisno tuzilmalari bo‘yicha Misr va G‘arb olimlari tomonidan ham tadqiqotlar olib borilgan. Tamam Hasan (1990) o‘zining sintaksisga oid tadqiqotlarida arab istisno jumlalarining kontekstga bog‘liqligini tahlil qilgan. Abdulqohir al-Jurjoniy (2002) esa istisno vositalarining balog‘at va uslubiyatdagi o‘rnini ko‘rsatib o‘tgan.

Ushbu maqolada istisno tuzilmalari tavsifiy, qiyosiy va komponentli tahlil asosida o‘rganiladi. Arab sintaktik tizimida istisno jumlalarining roli, ularning semantik ta’siri hamda turli kontekstlardagi ishlatilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Turli davrlarga oid grammatik va adabiy manbalar asosida istisno konstruktsiyalarining rivojlanish dinamikasi va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati yoritiladi.

Natijalar. Arab tilida istisno tuzilmalari faqat sintaktik jihatdan emas, balki semantik va pragmatik nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Istisno konstruktsiyalarining qadriyatini belgilovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

Grammatik jihat – Istisno jumlalari arab tilida turli grammatik tuzilmalarga moslashuvchan bo‘lib, ular nafaqat oddiy gaplarda, balki murakkab sintaktik konstruksiyalarda ham qo‘llanadi. Masalan, إلا ning nafiya jumlalaridagi roli bilan غير ning ijobiy jumlalardagi ishlatilish xususiyatlari o‘zaro farqlanadi.

Semantik ta’sir – Istisno jumlalari nutq mazmunini kuchaytirish va aniq ma’no ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular xususan balog‘at (بلاغة) ilmidagi muhim vositalardan biri hisoblanib, ma’lum bir tushunchani ajratib ko‘rsatish yoki cheklash imkonini beradi.

Uslubiy xususiyatlar – Istisno konstruktsiyalarining adabiy matnlardagi o‘rni katta bo‘lib, ular she’riy va nasriy matnlarda muhim stilistik vazifani bajaradi. Xususan, Qur’onda va qadimiy arab she’riyatida istisno usullari mazmunni yanada chuqurlashtirish va ta’sir kuchini oshirish uchun ishlatilgan.

Tarixiy jihat – Arab grammatikasining rivojlanish jarayonida istisno tuzilmalari grammatik qoidalar shakllanishida asosiy tushunchalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Basra va Kufa maktablarining istisno haqidagi turli qarashlari grammatik tizimning shakllanishiga ta’sir o‘tkazgan.

Amaliy qo‘llanilishi – Zamonaviy arab tilshunosligi va tarjimashunoslikda istisno jumlalari ma’noni nozik tafovutlar bilan yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning to‘g‘ri talqin qilinishi tarjima jarayonida katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, arab tilida istisno tuzilmalari nafaqat grammatika, balki semantika, uslubiyat va tarixiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning o‘rganilishi arab tilshunosligi taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shadi.

“Istisno” tushunchasi o‘zbek tilida bor, lekin bu nomdagi grammatik kategoriya mavjud emas. Tilimizda istisnolik quyidagicha ifodalanishi mumkin: “Ko‘nglimdin o‘zga mahrami asror topmadim” yoki “Akamdan boshqa hamma yig‘inda ishtirok etdi”. Bu misollardagi “ko‘nglimdin o‘zga” va “akamdan boshqa” birikmalari istisnolikni bildiradi.

Arab tilida esa bu holat alohida grammatik kategoriya sifatida qabul qilingan bo‘lib, “الاستثناء” (yoki “أسلوب الاستثناء”) deb nomlanadi.

“اسْـتَثْنَى – الاسْـتِثْناءُ” fe’lidan olingan bo‘lib, lug‘atda “chiqarib tashlash” yoki “ajratish” degan ma’noni bildiradi. Istilohda esa bir yoki bir nechta narsani avvalgi hukmdan chiqarib tashlashdir. Bu “إِلَّا، غَيْـر ، سِـوَى، سُـوَى، خَلَا، عَـدَا، وَحَاشَـا” kabi maxsus vositalar (أَدَوَاتُ الإِسْـتِثْنَاء) yordamida amalga oshiriladi. Mazkur vositalar uch turga bo‘linadi:

1. Sof yuklama (harf): إِلَّا
2. Ism: غَيْرٌ ، سِوًى، سُوًى
3. Ba’zan harf, ba’zan esa fe’l: خَلَا، عَدَا، وَحَاشَا

Istisno uslubi uch qismdan iborat:

1) “الْمُسْتَثْنَى مِنْهُ” (mustasno minhu) – qaysi so‘zdan istisno qilinayotgani

2) “الْمُسْتَثْنَى” (mustasno) – istisno qilinayotgan so‘z

3) “أَدَاةُ الإِسْتِثْنَاء” (istisno harfi) – istisno vositasi

وَصَلَ الضُّيُوفُ إِلَّا مَحْمُودًا gapida:

الْمُسْتَثْنَى	أَدَاةُ الإِسْتِثْنَاء	الْمُسْتَثْنَى مِنْهُ
مَحْمُودًا	إِلّا	الضُّيُوفُ

Istisnolik ishtirok etgan gaplarda mustasnoning qaysi kelishikda bo‘lishi shu gapning turiga, ya’ni uning bo‘lishli yoki bo‘lishsiz ekani va mustasno minhu (qaysi so‘zdan istisno qilinayotgani) qatnashgan yoki qatnashmaganiga bog‘liq. Arab tilida gaplar unda ifodalangan xabarning tasdiq yoki inkor ma’nosida ekanligiga ko‘ra 2 turli bo‘ladi:

1) الكلام المـوجَب – tasdiq ma’nosidagi bo‘lishli gap bo‘lib, unda inkor yuklamalari qatnashmaydi.

2) الكلام غير الموجَبِ – bo‘lishsiz ma’nodagi inkor gap.

Mustasno minhu mavjud yoki mavjud emasligiga ko‘ra ham 2 turga bo‘linadi:

1) الكلام التـامّ – mustasno minhu mavjud bo‘lgan, ya’ni mustasnoning qaysi so‘zdan istisno qilinayotgani ko‘rsatilgan gap.

2) الكلامُ النَّاقِصُ - mustasno minhu, ya’ni mustasnoning qaysi so‘zdan istisno qilinayotgani mavjud bo‘lgan gap.

1. إِلَّا bilan istisno qilish

إِلَّا istisno harflari ichida eng ko‘p qo‘llaniladigani hisoblanadi. Undan keyin keladigan mustasnoning qaysi kelishikda bo‘lishi shu gapning turiga bog‘liq. Bunda 3 holat mavjud:

- Agar istisnolik ishtirok etgan gap bo‘lishli (الموجَب) bo‘lib, unda mustasno minhu mavjud (التامّ) bo‘lsa, إِلَّا yuklamasidan keyingi so‘z tushum kelishigida bo‘lishi kerak. Masalan:

Bitta olmadan tashqari hamma olmalarni yedim. أَكَلْتُ التّفاحَ إِلَّا تفاحةً .

Bu gap الكلام التامّ hisoblanadi, chunki unda mustasno minhu mavjud – التّفاحَ,

الكلام الموجَب, chunki hech qaysi inkor yuklamasi ishtirok etmagan. Shu sababdan إِلَّا dan keyingi so‘z tushum kelishigida (منصوب) yozildi - تفاحةً

زارَ السُّياحُ القُصُورَ إِلَّا القَصْرَ القَدِيمَ.

- Sayyohlar eski qasrdan boshqa barcha qasrlarni ziyorat qilishdi.

Bu gap ham الكلام التامّ hisoblanadi, chunki unda mustasno minhu mavjud – القُصُورَ, الكلام الموجَب, ya’ni hech qaysi inkor yuklamasi ishtirok etmagan. Shu sababdan إِلَّا dan keyingi so‘z tushum kelishigida (منصوب) yozildi - القَصْرَ القَدِيمَ.

- Agar gapda istisnolikning barcha tarkibiy qismlari mavjud bo‘lsa, ammo gapning إِلَّا dan oldingi qismi bo‘lishsiz (غير الموجَبِ) bo‘lsa, ko‘p hollarda إِلَّا yuklamasidan keyingi mustasno so‘z qaysi so‘zdan mustasno qilinayotgan bo‘lsa, o‘sha so‘zning kelishigida bo‘ladi. Shuningdek, إِلَّا yuklamasi ta’sirida tushum kelishida kelishi ham mumkin. Masalan:

- Xoliddan boshqa hech kim kelmadi. مَا جَاءَ أَحَدٌ إِلَّا خَالِدٌ) إِلَّا خَالِدًا)

Yuqorida keltirilgan gap مَا inkor yuklamasi yordamida hosil qilingan bo‘lishsiz gap (غير الموجَبِ) va mustasno minhu qatnashgan va bosh kelishikda - أَحَدٌ ◊ shu sababdan mustasno qilinayotgan so‘z ham bosh kelishikda bo‘ladi – خَالِدٌ .

Biroq إِلَّا yuklamasi mavjudligini asos qilib olgan holda, mustasno qilinayotgan so‘zni tushum kelishigiga qo‘yib, إِلَّا خَالِدًا desak ham xato bo‘lmaydi.

مَا ذَهَبْتُ إِلَى الْجَامِعَاتِ إِلَّا الْجَامِعَةِ الْجَدِيدَةِ) إِلَّا الْجَامِعَةَ الْجَدِيدَةَ)

- Yangi universitetdan boshqa universitetlarga bormadim.

Mazkur misol ham مَا inkor yuklamasi yordamida hosil qilingan bo‘lishsiz (غير الموجَبِ) va qaratqich kelishigidagi mustasno minhu (الْجَامِعَاتِ) qatnashgan gap ◊ shu sababdan mustasno qilinayotgan so‘z ham qaratqich kelishikda bo‘ladi - الْجَامِعَةِ الْجَدِيدَةِ.

Biroq إِلَّا yuklamasi mavjudligini hisobga olgan holda, mustasno qilinayotgan so‘zni tushum kelishigiga qo‘yib, إِلَّا الْجَامِعَةَ الْجَدِيدَةَ desak ham to‘g‘ri sanaladi.

- Xatdan boshqa hech narsa yozmadim.لَمْ أَكْتُبْ شَيْئًا إِلَّا رِسَالَةً.

Bu gapdagi mustasno so‘z (رِسَالَةً)ning tushum kelishigida kelishi sababini 2 xil izohlash mumkin: 1) gapning إِلَّا dan oldingi qismi لَمْ inkor yuklamasi yordamida hosil qilingan bo‘lishsiz gap (غير الموجَبِ), tushum kelishigidagi mustasno minhu qatnashgan (شَيْئًا) va nasb qiluvchi so‘z vazifasini لَمْ أَكْتُبْ fe’li bajarmoqda.

2) yoki mustasnoning nasb qiluvchisi إِلَّا yuklamasi deb qaraladi va bu ham to‘g‘ri asos deb qabul qilinadi.

Agar istisnolik ishtirok etgan gapning إِلَّا dan oldingi qismi bo‘lishsiz (غير الموجَبِ) va qaysi so‘zdan istisno qilinayotgani mavjud bo‘lmasa (الكلامُ النَّاقِصُ), mustasno so‘z إِلَّا yuklamasi bo‘lmagan holatda qaysi kelishikda bo‘lishi kerak bo‘lsa, o‘sha kelishikni qabul qiladi va gap

bo‘lishsiz shaklda emas, “faqat” so‘zini ishlatgan holda tasdiq gap shaklida tarjima qilinadi. Masalan:

مَا سَافَرْتُ إِلَّا إِلَى مَكَّةَ.

- Faqat Makkaga safar qildim. (Makkadan boshqasiga safar qilmadim.)

- Faqat Ahmad keldi.(Ahmaddan boshqasi kelmadi)مَا حَضَرَ إِلَّا أَحْمَدُ.

Izoh. Gapning bu turida mustasno so‘z kelishigini aniqlashning eng oson usuli – inkor yuklamasini ham, istisnolik yuklamasi إِلَّا ham tushirib yuborib, hosil bo‘lgan gapning harakatlarini grammatik qoidalarga binoan qo‘yib olamiz va tushirilgan ikki yuklamani yana joyiga qaytaramiz:

مَا حَضَرَ إِلَّا أَحْمَدُ. أَحْمَدُ حَضَرَ

أَحْمَدُ – gapning egasi, bosh kelishikda

مَا رَأَيْتُ إِلَّا الزُّهُورَ. الزُّهُورَ رَأَيْتُ

الزُّهُورَ - to‘ldiruvchi, tushum kelishigida

2. غَيْرٌ ، سِوًى، سُوًى bilan istisno qilish

Ushbu vositalar o‘zidan keyingi so‘z bilan izofa hosil qiladi, shuning uchun mustasno qilinayotgan so‘z qaratqich kelishigida bo‘ladi va mazkur istisnolik vositalarining o‘zi esa mustasno hukmida bo‘lib, yuqorida ko‘rib chiqilgan uch holatga ko‘ra (إِلَّا dan keyingi so‘zlar kabi) kelishiklarda turlanadi:

1) قَرَأَ الطُّلَّابُ غَيْرَ زَيْدٍ – bo‘lishli, mustasno minhu qatnashgan, shuning uchun غَيْرَ istisnolik tufayli tushum kelishigida va mudof, زَيْدٍ mudofun ilayhi bo‘lib qaratqich kelishigida.

2) مَا جَاءَ أَحَدٌ غَيْرُ خَالِدٍ غَيْرَ خَالِدٍ - bo‘lishsiz, mustasno minhu qatnashgan, غَيْرُ ni mustasno minhu kabi bosh kelishikka qo‘ysak ham, istisno hukmiga ko‘ra tushum kelishigida qilsak ham to‘g‘ri bo‘laveradi.

3) لَمْ أَرَ غَيْرَ صُورَةٍ - bo‘lishsiz, noqis gap, غَيْرَ to‘ldiruvchi bo‘lganligi sababli tushum kelishigida yozildi.

Izoh. سِوًى va سُوًى ham غَيْر kabi kelishiklarda turlanadi, lekin tarkibidagi maqsura alif sabab zamma, fatha, kasra harakatlarini taqdiriy holda oladi.

3. خَلَا، عَدَا، وَحَاشَا bilan istisno qilish

Bulardan keyingi mustasno so‘z qaratqich kelishigida ham, tushum kelishigida ham kelishi mumkin.

• Agar bu 3 vositani taqdiran fe’l deb olsak, ulardan keyin keluvchi mustasno qilinayotgan so‘z to‘ldiruvchi hisoblanib, tushum kelishigini qabul qiladi:

قَامَ كُلُّ الطُّلَّابِ خَلَا زَيْدًا أَوْعَدَا\وَحَاشَا زَيْدًا – Zayddan boshqa hamma talabalar turdi. (Zayddan xoli bo‘lgan holda turdi.)

• Agar mazkur istisnolik vositalarini taqdiran harfi jar (yordamchi so‘z) deb oladigan bo‘lsak, ulardan keyingi mustasno so‘z qaratqich kelishigida kelishi kerak bo‘ladi:

قَامَ كُلُّ الطُّلَّابِ خَلَا زَيْدٍ أوْ عَدَا\وَحَاشَا زَيْدٍ

• Shuningdek, خَلَا، عَدَا oldidan مَا yuklamasi (ما المصدرية) kelishi mumkin. Bu holatda mazmunda o‘zgarish bo‘lmaydi, lekin bu ikkisi fe’l hisoblanib, ulardan keyingi istisno so‘z faqat tushum kelishigida keladi. Masalan:

جَاءَتِ الطَّالِبَاتُ ما عَدَا زَيْنَبَ. – Zaynabdan boshqa barcha talaba qizlar keldi.

Xulosa qilib aytsak, istisno uslubi o‘zbek tilidan farqli ravishda arab tili grammatikasining muhim mavzularidan hisoblanadi. Bu maqolada taqdim etilgan ma’lumot va tahlillar ushbu grammatik kategoriyaning o‘ziga xos morfologik xususiyatlarini batafsilroq tushunishga va amaliyotga to‘g‘ri tatbiq etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Abdulaziz, R. (2024). A Comparative Analysis of English and Arabic Prepositions: Syntax, Semantics, and Usage Patterns. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(5), 112-114. https://doi.org/10.5281/ (in English)
2. Al-Dahdah, Antoine. (1992) Dictionary of Arabic Grammar in Tables and Charts. Mu’jam qava’id al-lug‘a al-arabiyya. – Bayrut: Maktabat Lubnan. – 352 p. (in Arabic)
3. Al-Jarim, Ali; Amin, Mustafa. Clear Grammar. Part Two. (1983). An-Nahv al-vadih. Al-juz’ as-saniy. – Misr, al-Qohira: Dar al-ma’arif. – 152 p. (in Arabic)
4. Begmatova, B. M., Mutalova, G. S., & Kasimova, S. S. (2023). The Direct Object And Its Use In Arabic Language. Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal, 10(1), 3601-3609.
5. Grande, B.M. (1998). Course of Arabic grammar in comparative-historical light. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskom osveshenii. – Moscow: RAN. – 592 p. (in Russian)
6. Hassan, Abbas (1975). Comprehensive Grammar. Part Four. An-Nahv al-vafi. Al-Juz’ar-rabi’. – al-Qohira: Dar al-ma’arif. – 835 p. (in Arabic)
7. Nasif, Khifni et al. Grammar lessons (2006). ad-Durus an-nahviyya. – Misr, al-Iskandariyya: Dar al-Aqida. – 415 p. (in Arabic)
8. Nemah, Fouad. Summary of Arabic Grammar Rules. (1998). Mulaxxas qava’id al-lug‘a al-arabiyya. – Misr: Nahdat Misra. – 855 p. (in Arabic)
9. Rustamov, A. (2020). Syntactic properties of conditional prepositions (hurufu-sh-shart). Shart yuklamalari (hurufu-sh-shart)ning sintaktik xususiyatlari. Sharq mash’ali, 1(1), 108-116. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/eastern-torch/article/view/13273 (in Uzbek)

10. Sheikh Al-Ghalayni, M. (2007). Collection of Arabic Lessons. Ash-Shayx al-G‘alayiyniy, Mustafa. Jami’ ad-durus al-arabiyya. – al-Qahira: Dar al-g‘ad al-jadid. – 590 p. (in Arabic)